




# QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

The top half of the cover features a background image of a business meeting. A person in a suit is seen from the side, looking at a laptop. Overlaid on this are various data visualization elements: a 3D bar chart, a line graph with blue and white points, and a large blue and grey arrow pointing upwards and to the right. A thick orange diagonal bar runs from the bottom left towards the top right, partially overlapping the blue bar.

## QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR OYI  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1605,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 108,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 67,3 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 15,7 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 26,7 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 127,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2021- yil

B

10,5 %

2022- yil


B

8,0 %


Yanvar oyi

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Tabiiy qumlar, ming t.	8,3	5,9	-2,4
Neft, ming t.	2,6	2,0	-0,6



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	153,0	71,8	-81,2
Gaz kondensati, ming t.	13,8	10,4	-3,4


yanvar yirik korxonalar boʻyicha

Ishlab chiqaradigan sanoat

mird. soʻm

Yanvar oyi

FHI,% da



2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1080,9 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 67,3 % ini tashkil etdi.


2021- yil yanvar oyi

62,8 %

2022- yil yanvar oyi

67,3 %

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar oyida – 0,1 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 21,1 % (19,5 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 1,7 % (1,1 %) va quyi texnologiyali – 44,4 % (42,1 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 14,2 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 96,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 203,3 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,4 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 21,0 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 176,8 %), mebel ishlab chiqarishning ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da \*

Tabiiy qumlar



Gaz kondensati



Tabiiy gaz



Neft



Propan, Butan



Chaqiq tosh



\* Yanvar oyi yirik korxonalar bo‘yicha

Yumshoq bug'doy uni




Aroq



Uzum vinosi




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2022- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 11,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 92,6 %) ni, 2,2 ming tonna kalava ip (87,1 %) ni, 6,4 ming tonna paxta tolasi (67,1 %) ni hamda 188,0 ming ltri aroq mahsulotlari (92,2 %) ni, tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar oyi	2022- yil yanvar oyi	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	12,6	11,7	-0,9
Paxta tolasi, ming t.	3,8	6,4	2,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	0,7	0,5	-0,2


yanvar oyi yirik korxonalar bo'yicha

### Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 59,9 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,2 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 2,0 martaga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 2,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 86,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 19,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 96,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 227,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 162,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 13,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 121,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 423,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 94,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 %, fizik hajm indeksi 102,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 35,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 106,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,0 % ni, fizik hajm indeksi 101,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 336,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, mebel ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 105,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,04 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,3 % .


Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 176,8% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan, Yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 119,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 138,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 119,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 138,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish


2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,03 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 141,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,02 % ni, fizik hajm indeksi 115,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 387,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 24,1 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 26,7 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1188,7	1073,3	-115,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	291,5	287,4	-4,1

yanvar yirik korxonalar bo'yicha

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	61,2	4906,6	4845,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3139,8	1175,7	-1964,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 20,2 % ga hamda Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar 15,2 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 330,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar oyi

63,8%

2022- yil  
yanvar oyi

66,5%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar oyi

36,2%

2022- yil  
yanvar oyi




33,5%

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,9 % (2021- yil yanvar oyida 2,3 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 25,9 % ni va Yakkabog' tumani 8,1 % ni, Chiroqchi tumani 7,4 % ni hamda Kitob tumani 7,3 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida tumanlarda o'sish sur'ati (102,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qarshi shahri (110,1) qayd etildi.*

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 25,9 %, shuningdek, Yakkabog' tumani 8,1 % ni, Chiroqchi tumani 7,4 % ni, Kitob tumani 7,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Mirishkor tumaniga to'g'ri kelib, 11,4 %, shuningdek, Qarshi tumani 10,5 % ni, Kitob tumani 10,4 % ni, Chiroqchi tumani 8,7 % ni tashkil etdi.

**110,9** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-dekabr

**113,7** mlrd. so'm


2021- yil yanvar-dekabr

**110,6** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-dekabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 32,8 % ni, shuningdek, Koson tumani 7,9 % ni, Yakkabog' tumani esa 7,5 % ni tashkil etdi.





o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

157,1 mlrd. so'm  
2020- yil yanvar-dekabr

193,4 mlrd. so'm  
2021- yil yanvar-dekabr

206,5 mlrd. so'm  
2022- yil yanvar-dekabr



**Qashqadaryo viloyati tuman, shahar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nison tumaniga to'g'ri kelib, 23,2 % ni, shuningdek, G'uzor tuman 17,2 % ni, Qarshi shahar esa 14,5 % ni va tashkil etdi.

**Qashqadaryo viloyat**

2020- yil

1086,6 mlrd. so'm

2021- yil

1443,5 mlrd. so'm

2022- yil

1605,6 mlrd. so'm



2020- yil


100,3 %

2021- yil

114,7 %

2022- yil

108,9 %




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (2363,3 ming so'm), G'uzor (1312,8 ming so'm), Muborak tumanida (888,3 ming so'm), Qarshi shahri (831,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (472,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

334,7 ming so'm

2021- yil

436,5 ming so'm

2022- yil

476,2 ming so'm



2020- yil

98,3%

2021- yil


112,6 %

2022- yil

106,9 %

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 387,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,1 % ni tashkil etdi.



### Qashqadaryo viloyati

2020- yil

385,3 mlrd. soʻm

2021- yil

397,7 mlrd. soʻm

2022- yil

387,4 mlrd. soʻm



2020- yil

35,5 %

2021- yil

27,6 %



2022- yil

24,1 %

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 97,9 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 304,3 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 159,2 ming so'mni, Mirishkor tumanida – 148,7 ming so'mni va Nishon tumanida – 109,3 ming so'mni tashkil etdi.


**Qashqadaryo viloyati**



o'sish sur'ati  
ming. so'm

**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 4766 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 901 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,9 % i) Qarshi shahriga, 514 tasi (10,8 %) Kitob tumaniga, 436 tasi (9,1 %) Chiroqchi tumaniga, 354 tasi (8,8 %) Shahrisabz shahriga to'g'ri kelmoqda.



**Jami yangi tashkil etilgan**



**Jami faoliyat yuritayotgan**

